



Prezident Maktablariga Qabul Qilish Sinovi – Namunaviy Savollar Izohlangan javoblari bilan

Test A: Masala yechish

1. Anora pullarini sanagandi, 12000 so‘m chiqdi. U 100 so‘mlik, 200 so‘mlik va 500 so‘mlik qog‘oz pullarini alohida-alohida taxladi. Qarasa, 100 so‘mlik banknotalari (qog‘oz pullari) 200 so‘mlik banknotalardan 3 marta ko‘proq, 200 so‘mlik banknotalari esa 500 so‘mlik banknotalardan 2 marta ko‘proq ekan.

Anoraning jami qancha banknotalari (qog‘oz pullari) bor?

A 42

B 48

C 60

D 72

E 84

Javob: D

Izoh

Har bir 500 so‘mlik banknotaga ikkita 200 so‘m banknota va oltita 100 so‘mlik banknota to‘g‘ri keladi. Demak, har bir 500 so‘mlik banknota uchun shartli ravishda jami qiymati 1500 so‘mlik 9 ta banknota to‘g‘ri kelar ekan ($(1 \times 500) + (2 \times 200) + (6 \times 100)$).

$12000/1500 = 8$, demak ushbu 9 banknotalik shartli to‘plamdan 8 tasi bor ekan, ya‘ni $8 \times 9 = 72$.

2. Saodat xonim o'g'illari Kamoliddin va Murodjon uchun sport poyafzallari sotib olayapti. Quyidagi jadval savdoda mavjud poyafzallar haqida ma'lumot beradi

Turi	Mavjud o'lchamlari	Qanday rangli turlari bor	Narxi
A poyafzal	1 – 10	oq	\$ 60
B poyafzal	5 – 12	qora, ko'k	\$ 50
C poyafzal	3 – 8	qora	\$ 55
D poyafzal	2 – 6	qizil, qora, oq	\$ 70
E poyafzal	5 – 10	ko'k, qora	\$ 40

Kamoliddin 4 o'lchamli poyafzal kiyadi, lekin u qora yoki ko'k tuflilarni yoqtirmaydi.

Murodjon 8 o'lchamli poyafzal kiyadi va faqat oq yoki qizil poyafzal kiyadi.

O'g'illarining istaklarini inobatga olgan holda ikki juft poyafzal sotib olish uchun Saodat xonim kamida qancha to'lashi kerak?

- A \$100
- B \$110
- C \$115
- D \$120
- E \$130

Javob: D

Izoh

Kamoliddin 4 o'lchamli poyafzal kiyadi, bunday o'lchamli A, C va D poyafzallar bor. Ammo C poyafzaldan sotuvda faqat qora ranglisi bor, demak A yoki D poyafzallar qoldi.

Murodjon 8 o'lchamli poyafzal kiyadi, bunday o'lchamli A, B, C va E poyafzallar bor. Lekin u faqat oq yoki qizil poyafzal kiyadi, demak faqat A poyafzal qoladi.

Saodat xonim ikkala o'g'li uchun ham A poyafzaldan sotib olib \$120 to'lashi yoki Kamoliddin uchun D poyafzal va Murodjon uchun A poyafzaldan sotib olib \$130 to'lashi mumkin.


Bularning ichida \$120 to'laydigan variant arzonroq tushadi.

3. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi qog'oz ikkiga buklandi, keyin shu buklanish chizig'iga perpendikulyar ravishda yana ikkiga buklandi.

Buklangan qog'ozning bir burchagi qirqib olindi. Keyin buklangan qog'oz ochildi.

Quyidagilarning qaysi biri ochilgan qog'ozning ko'rinishi bo'lishi mumkin emas.

(Nuqtali chiziq qog'ozning buklanish yo'lini bildiradi)



Javob: B

Izoh

B bu tarzda hosil bo'lishi mumkin bo'lmagan yagona vaziyat. Boshqa hamma vaziyatlar buklangan qog'ozning qaysidir burchagini qirqqaningizga hosil bo'lishi mumkin.

Test A: Tanqidiy fikrlash

4. Dunyoda ichishga toza suvi yo'q bo'lgan odamlar juda ko'p.
+
Iflos suvni ichish insonning sog'ligiga zarar yetkazishi mumkin.
+
O'z aholisining sog'ligi haqida qayg'urish hukumatlarning vazifasidir.
=
-

Yuqoridagi chiziq o'rnida quyidagi jumladan qaysi biri bo'lishi kerak?

- A** Odamlar iflos suv ichmasligi kerak.
B Hamma so'g'lom bo'lishga harakat qilishi kerak.
C Ko'p odamlar toza suv topish uchun uzoq yo'l bosishiga to'g'ri keladi.
D Hukumatlar hech qachon o'z vaziflarini bajarmaydilar.
E Hukumatlar o'z aholisi toza suv bilan ta'minlashi kerak.

Javob: E

Izoh

Birinchi ikki jumladan biz ichish uchun toza suvning mavjud emasligi odamlarning sog'ligiga yomon ta'sir qilishi mumkinligini xulosa qilishimiz mumkin. Uchinchi jumlaning ham qo'shsak, odamlar sog'ligi haqida qayg'urish hukumatning vazifasi ekan, demak ularni toza suv bilan ta'minlash ham hukumatning vazifasi ekan.

Boshqa variantlar:

Berilgan jumladan **A** xulosani chiqara olmaymiz, bizga dunyoda ichishga toza suvi yo'q bo'lgan odamlar ko'p ekanligi aytilgan.

Berilgan jumalarning hech qaysisi alohida ham, boshqa jumla bilan mantiqiy jihatdan birlashganda ham **B** xulosani kelib chiqishiga asos bo'la olmaydi.

Berilgan jumalarning hech qaysisi alohida ham, boshqa jumla bilan mantiqiy jihatdan birlashganda ham **C** xulosani kelib chiqishiga asos bo'la olmaydi.

Berilgan jumladan **D** xulosani ham chiqara olmaymiz, chunki yuqoridagi jumalarda ba'zi hukumatlar o'z aholisini toza suv bilan ta'minlay olmayotgani aytilgan bo'lsa ham, bu ularning boshqa vazifalarini ham bajarmayotganliklarini bildirmaydi.

5. Oxirgi olingan imtihonda Mansur hamma savollarga to'g'ri javob berganini eshitgan Sobir "Ko'rdingmi? Mansur imtihonda qalloblik qilganini *bilgan edim*" dedi.

Kamolning aytgan gapini to'g'ri bo'lsa, bundan quyidagi xulosalardan qaysi birini chiqarish mumkin?

A Imtihon juda qiyin bo'lgani uchun unda hech kim hamma savolga to'g'ri javob bergan bo'lishi mumkin emas edi.

B Mansur qalloblik qilmasa, imtihonda hamma savolga to'g'ri javob berishi mumkin emas edi.

C Ushbu imtihon Mansur va Sobirlarning sinfi topshirgan imtihonlar ichida eng qiyini edi.

D Mansur birorta imtihonda savollarning hammasini ishlay oladigan darajada aqlli emas.

E Mansur bundan oldingi imtihonlarda ham qalloblik qilgan edi.

Javob: B

Izoh

Agar Sobir faqatgina Mansurning imtihondagi hamma savollarga to'g'ri javob bergani haqidagi ma'lumotiga asoslanib Mansurning qalloblik qilgani haqida xulosa chiqargan bo'lsa, demak Mansur qalloblik qilmasa imtihonda hamma savollarga to'g'ri javob berishi mumkin emas edi. Agar bunday bo'lmasa, demak Sobir adashgan.

Boshqa variantlar:

A xulosa to'g'ri bo'lishi mumkin, lekin shart emas. Ya'ni bizga faqat Mansurning olgan natijasi aytili va Sobir uning qalloblik qilayotganini da'vo qilayapti, balki boshqa odam hamma savollarga to'g'ri javob berganda Kamol bunaqa demagan bo'lardi.

C xulosa to'g'ri bo'lishi shart emas. Sobir faqat Mansurning natijasiga fikr bildirayapti, bu imtihon boshqa o'quvchilar uchun oson bo'lishi mumkin.

D xulosa to'g'ri bo'lishi shart emas, chunki Mansur boshqa fanlardan imtihonlarda yoki bundan osonroq imtihonlarda hamma savolga to'g'ri javob berishi mumkin.

E xulosa to'g'ri bo'lishi shart emas, Mansur birinchi marta imtihonda qalloblik qilayotgan bo'lishi mumkin.

6. Maktabimiz o'quvchilari bilan suhbatda mashhur tadqiqotchi: "Yoshlar sarguzashtsevar bo'lishi kerak. Bu ularning o'zlari uchun foydali" - dedi.

Quyidagi faktlardan qaysi biri tadqiqotchining gapini to'ldirib, eng yaxshi isbot bo'la oladi?

A Ba'zi yoshlar tabiiy ravishda boshqalaridan jasurroq bo'ladi.

B Hayotda hech qachon tavakkal qilmaydigan odamlar xavfli vaziyatlarda qanday harakat qilishni bilmaydilar.

C Baxtsiz hodisalardan butunlay qutilish mumkin emas, lekin ehtiyotkor odamlar ularga kamroq duch keladilar.

D Kerak bo'lmagan vaziyatlarda ham tavakkal qiladigan odamlar o'zlarini ham, boshqalarni ham xavfga duchor qiladilar.

E Sayohatsevar bo'lish hamisha ham xavfli tavakkal qilish degani emas.

Javob: B

Izoh

Bu tadqiqotchi yoshlar sayohatsevar bo'lishi kerakligi, bu ular uchun foydaliligini aytmoqda, lekin foyda aniq nimada ekanini aytmayapti. **B** xulosa sayohatsevar bo'lish (bunda ba'zida xavf – xatarlarga duch kelib, tavakkal qilish kerak bo'ladi) yoshlarning xavfli vaziyatlarda qanday harakat qilishga o'rgatishi aytilmoqda, shu orqali tadqiqotchining gaplarini ma'qullab, uning gaplariga isbot bo'lmoqda.

Boshqa variantlar:

A xulosa tadqiqotchining gaplarni tasdiqlamayapti – ba'zi yoshlarning boshqalardan ko'ra jasurroq bo'lishi ularning sayohatsevar bo'lishini anglatmaydi.

C xulosa tadqiqotchining gapini tasdiqlamayapti – tadqiqotchi baxtsiz voqealar haqida hech narsa demayapti

D xulosa tadqiqotchining gapini tasdiqlamayapti – tadqiqotchi kerak bo'lmagan tavakkallarni yoqlaydigan gap ham aytmagan bo'lsa ham, umuman olganda bu xulosa uning gaplariga zid ma'no berayapti.

E xulosa tadqiqotchining da'vosiga bo'lishi mumkin bo'lgan e'tirozga oldindan javob bo'layapti, (masalan, yoshlar kerak bo'lmagan tavakkallar qilishga rag'batlantirilmasligi kerak degan da'voga), lekin tadqiqotchining gapini tasdiqlayotgani yo'q.

7. Tog'ning baland cho'qqisiga ko'tarilishga tayyorgarlik ko'rayotgan alpinistlarga yo'l boshlovchi "Ertalabki soat 4:00 gacha toqqa ko'tarilishni boshlamaganlar cho'qqiga yetib bora olmaydi", - dedi.

Agar yo'l boshlovchining bashorati to'g'ri bo'lsa, quyidagilardan qaysi biri to'g'ri bo'lishi kerak?

A Ertalabki soat 4:00 dan oldin toqqa ko'tarilishni boshlagan hamma alpinistlar cho'qqiga yetib bora oldilar.

B Ertalabki soat 4:00 dan oldin toqqa ko'tarilishni boshlagan ba'zi alpinistlar cho'qqiga yetib bora olishadi.

C Ertalabki soat 4:00 dan keyin toqqa ko'tarilishni boshlagan alpinistlarning hech qaysisi cho'qqiga yetib bora olishmadi.

D Cho'qqiga yetib brogan alpinistlargina toqqa ertalabki soat 4:00 dan dan oldin ko'tarilib boshlagan edilar.

E Cho'qqiga yetib bora olmagan hamma alpinistlar toqqa ertalabki soat 4:00 dan keyin ko'tarila boshlagan edilar.

Javob: C

Izoh

Agar ertalabki soat 4:00 dan keyin toqqa ko'tarila boshlagan kimdir cho'qqiga yetib bora olganida, yo'l boshlovchining bashorati xatò bo'lgan bo'lar edi. Agar yo'l boshlovchining bashorati to'g'ri bo'lsa, demak ertalabki soat 4:00 dan keyin toqqa ko'tarilishni boshlagan hech kim cho'qqiga yetib bora olmagan bo'lib chiqadi.

Boshqa variantlar:

A xulosa to'g'ri bo'lishi shart emas – yo'l boshlovchining bashorati toqqa ertalabki soat 4:00 dan oldin ko'tarila boshlaganlarning ichidan kim(lar)dir cho'qqiga yetib bora olmasligini istisno qilmaydi.

B xulosa xato. Agar bu to'g'ri bo'lganda, yo'l boshlovchining bashorati xato bo'lgan bo'lar edi.

D xulosa to'g'ri bo'lishi shart emas – A xulosadagi kabi yo'l boshlovchining bashorati toqqa yetib bora olmaganlar ichida ertalabki soat 4:00 dan oldin ko'tarila boshlaganlar bo'lmaganligini istisno qilmaydi.

E xulosa A xulosa bilan teng kuchli, demak to'g'ri bo'lishi shart emas.